

QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARNI OZIQLANTIRISH VA OZUQALARNING KIMYOVIY TARKIBI

Sulaymonova X.I.

Toshkent kimyo xalqaro universiteti biotexnologiya magistri.

xurshidasulaymonova0@gmail.com

Xudoyberganova G.S.

Qibray tumani kasb xunar kolej o'qituvchisi.

xudoyberganova.guzal@gmail.com

Annotatsiya: Xalqimizning qishloq xo'jaligida chorvachilika bo'lgan talabini to'laroq qondirish chorvachilikni rivojlantirish hamda chorva hayvonlarini to'la qiymatli oziqlantirishda mustahkam yem-xashak zaxirasini yaratishda olimlar tomonidan chorvador fermerlarga kimyoviy oзуqalar bilan to'ldirib oзуqa zahirasini boyitilib borilmoqda. Oзуqalarning to'yimligini baholash uchun ularning kimyoviy tarkibini o'rganish davom etmoqda.

Kalit so'zlar: chorvachilik, donli oзуqalar, suv, quruq modda, organik modda, mineral modda, azotli moddalar.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini sifatli va to'yimli moddalarga boy bo'lgan tabiiy oзуqa talabini to'liq qondiradigan, ularning fiziologik holatiga zarar yetkazmaydigan ovqat hazm qilish organlariga mos keladigan turli xil yo'llar bilan kimyoviy hamda mikrobiologik usulda olinadigan mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan o'simliklar va hayvonot dunyosidan kelib chiqqan mahsulotlarga talab yuqori bo'lganligi uchun, olimlar tomonida juda chuqur o'rganilmoqda. Chorva hayvonlariga beriladigan barcha oзуqalar kimyoviy tarkibiga ko'ra quyidagi moddalardan tuzilgan va ularning har biri organizmda ma'lum bir funktsiyani bajaradi. Yem-xashak, suv, quruq modda, organik modda, mineral modda, azotli moddalar, azotsiz moddalar, makro va mikroelementlar, vitaminlar, va hokazolar. Xozirgi kunda briketlangan oзуqalar xam keng qo'lanilmoqda buning asosiy tarkibi pichan, somon, kunjara, don aralashmalarini maydalab, preslangan holda tayyorlanadi. Ushbu oзуqalarni saqlash qulay va tarkibidagi moddalar to'liq saqlanadi. Azotsiz ekstraktiv – moddalarning yuqori darajada oziqlik qimmatiga ega bo'lgani kraxmal va qand hisoblanadi. Kraxmal kartoshka, boshoqdosh o'simliklar donida ko'proq bo'ladi. Ularning poyasida va bargida oz (2%) bo'ladi. Qand lavlagi (24%), makkajo'xori, oqjo'xori va poliz ekinlarda (qovun, qovoq, tarvuz va hokazolarda) ko'proq, sutda kamroq (3-5%) bo'ladi. Vitaminlar – nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Organizmda moddalar almashilish jarayonida ishtirok etadi. Ular yetishmasa, hayvonlar turli kasalliklarga chalinib ozib ketadi. Shuning uchun hayvonlar oзуqa ratsionida vitaminlarning

me'yorda bo'lishiga alohida e'tibor berishi kerak. Sersuv oзуqalar tarkibida 70-92% suv bo'lgan oziqlar sersuv hisoblanadi. Lekin ularga tarkibida yog' va protein oz bo'ladi. Ko'kat oзуqalar tabiiy va sun'iy holda o'stiriladigan barcha turdagi o'simliklar ko'kat oziq hisoblanadi. Masalan, har xil o'tlar, boshqodosh (arpa, suli, bug'doy), dukkakdosh o'simliklar (beda, no'xat, loviya), ildizmevalarning poyasi, bargi shular jumlasidandir. Ko'kat oзуqalar qishloq xo'jalik hayvonlarini erta bahordan to kech kuzgacha oziqlantirishda eng asosiy oziqalardan biri hisoblanadi. Tanasida mayin shirali bo'lganligi uchun barcha turdagi va yoshdagi hayvonlar hamda parrandalar uchun eng sevimli oзуqa hisoblanadi. Fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida ham hayvonlarning to'yimli moddalarga bo'lgan tabiiy talabini qondirishda ko'kat oзуqalarga teng keladigan biror bir oзуqa turi yaratilgan emas. Dag'al oзуqalar bularga tabiiy va sun'iy usulda ekilib quritilgan har xil pichan, somon, turli xildagi o'simliklarning o't uni, paxta shulxasi, (makkajo'xori, g'o'zapoya, oqjo'xori, kungaboqar va hokazolarning) poyasi, so'tasi va chig'anog'i kiradi. Dag'al oзуqalarning boshqa oзуqalardan asosiy farqi, ularning tarkibida hayvonlar iste'mol qilganda hazmlanishi qiyin bo'lgan kletchatkaning miqdori ko'p bo'ladi. Masalan, pichan tarkibida 13-32 %, donlar qobig'i (myakina) tarkibida 25-35 %, poxol (somon) tarkibida 42 %, o't uni tarkibida 15-28 % kletchatka bo'ladi. Dag'al oзуqalar kavsh qaytaruvchi hayvonlar oзуqa ratsionida ularni protein, uglevod, vitamin va mineral moddalar bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, oзуqalarning hazmlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pichanning kimyoviy tarkibi uning sifatiga ko'ra turlicha bo'ladi. Masalan, 4-26% protein, 3-7 yog', 18-35% kletchatka, 3-11% kuldani iborat. 1 kg sifatli beda pichanida 0,5 kg gacha oziq birligi bo'lishi mumkin. Ildizmevali oзуqalar tarkibida suv (90 % gacha), uglevod, mineral vitaminlar ko'p bo'lganligi uchun tez hazmlanadi. Ular tarkibida protein, kalsiy va fosfor juda oz bo'ladi. Ovqat hazm qilish organlarida oзуqalarning yaxshi hazmlanishiga va yelinda sut ajralib chiqishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O't (beda) uni ko'k o'tlardan, ko'proq bedadan tayyorlanadi. Uning 1 kg tarkibida 170-200 gr oqsil, 200-250 gr karotin bo'ladi. aralash oziq tayyorlashda u ko'p ishlatiladi. O't uni qog'oz hamda polietelen qoplarda saqlanadi. Somon – o'z xususiyati, tarkibi va qanday o'simlik poyasidan tayyorlanganligiga ko'ra turlicha bo'ladi. Masalan, kuzgi javdar somoni tarkibida 35-45% kletchatka, bug'doy somonida 10 dan 20 gacha oзуqa birligi va 0,8 kg hazm bo'ladigan oqsil borligi aniqlangan. Boshqodosh o'simliklar somoni tarkibida 4-5%, dukkakdosh o'simliklar somonida 6-7% protein bo'ladi. Uning tarkibida karotin, kalsiy va fosfor kabi moddalar hazm oz bo'ladi. Binobarin, somonning to'yimliliigi past, hazmlanishi qiyin bo'ladi. Donli oзуqalar qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarini energiya va proteinga bo'lgan talabini qondirishda, donli oзуqalarning o'rni beqiyos bo'lganligi uchun ularni boshqa oзуqalar bilan qiyoslab bo'lmaydi. Donli oзуqalar tarkibida o'rtacha 7,8-13,0 Mj

almashinuv energiyasi mavjud bo'lib, 80 dan 400 gramgacha hazm bo'ladigan protein bo'ladi. donli ozuqalar to'yimli moddalarni saqlashiga qarab 3 guruhga bo'linadi.

1. Uglevodga boy bo'lgan donli ozuqalar. Bularga boshqoqli ekinlarning donlari kiradi (arpa, bug'doy) va yuoshqa boshqoqli ekinlarning donlari.

2. Oqsilga boy bo'lgan donli ozuqalar. Bularga barcha dukkakli ekinlarning donlari kiradi.

3. Yog'ga boy bo'lgan donli ozuqalar. Bularga yog'ga boy bo'lgan barcha o'simliklarning donlari kiradi (paxta chigiti, kunjut, masxad, kungaboqar) va boshqa o'simliklar. Bulardan tashqari chorva hayvonlarini oziqlantirishda har xil oziq-ovqat va sanoat chiqindilaridan ham keng foydalaniladi. Qand, kraxmal, un, spirt va yog' ishlab chiqarishdan qolgan har xil ozuqa qoldiqlarining tarkibida 1,13 dan 12,9 gacha Mj almashinuv energiyasi, 350-400 gramgacha hazm bo'ladigan protein mavjud bo'ladi (kunjara va shirot). Ozuqalar tarkibidagi to'yimli moddalar miqdori kimyoviy birikmalar 1-jadvalda berilgan

1-jadval

Ozuqalar nomi	Ozuqa birligi	Almashinuv energiyasi(MJ)	Quruq modda(kg)	Hazim bo'ladigan protein(g)	Qand (gr)	Kalsiy (gr)	Fosfor(g)	Karotin (mg)	
Dag'al ozuqalar									
Beda pichani	0,44	6,72	0,830	101,0	20,0	17,0	2,2	49,0	
Bug'idoy somoni	0,2	4,76	0,846	5,0	3,0	2,8	0,8	4,0	
Arpa somoni	0,34	5,71	0,830	13,0	2,4	3,3	0,8	4,0	
Har xil o't pichanlari	0,44	6,45	0,850	56,0	10,0	8,3	2,0	15,0	
Ser-suv shirali ozuqalar									
Makkajo' xori silosi	0,20	2,30	0,250	14,0	6,0	1,4	0,4	20,0	
Beda senaji	0,35	4,19	0,450	71,0	19,0	10,9	1,0	40,0	
Xashaki lavlagi	0,12	1,65	0,120	9,0	40,0	0,4	0,5	0,1	
Sabzi	0,14	2,20	0,120	8,0	35,0	0,9	0,6	54,0	
Omuxta yem ozuqalari									
Suli doni	1,0	9,2	0,850	79,0	25,0	1,5	3,4	1,3	
Makkajo' xori doni	1,33	12,2	0,850	73,0	40,0	0,5	5,2	3,0	

Arpa doni	1,15	10,5	0,850	85,0	2,0	2,0	3,9	0,5-0,2
Bug'doy doni	1,27	10,7	0,850	142,0	15,0	0,7	4,3	10,2
Paxta kunjarasi	0,89	10,21	0,900	329,0	65,0	4,1	10,1	1,0
Kombi-korm	0,98	9,12	0,850	76,0	18,0	0,9	5,1	2,0

Xulosa qilib qishloq xo'jaligida chorva mollariga yem-xashaklarni kalloriyaga boy to'yimli xolatda yetkazib berish va tabiiy xamda kimyoviy ozuqa ratsionini boyitib boorishlar xisob kitoblar bilan va jadvalda ozuqalarning kalloriyalari hazm bo'lish, energiya almashinuvlari ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar

1. Sattorov N.E., Botirov A.N., Ashurov N.A. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2020yil. 185bet
2. Ikromov T.H. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2001yil. 288 bet.
3. Maqsudov I., Jo'rayev J. Y., Amirov .Sh.Q. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2012yil. 361- bet.